



**CHDPU**  
CHIRCHIQ DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



**AUEZOV**  
UNIVERSITY  
1943



O'ZBEKISTON  
FANLAR AKADEMIYASI  
TARIX INSTITUTI



# **RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN**

Chirchiq, 2025-yil 25-aprel

# **HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT IN A DIGITAL SOCIETY: OPPORTUNITIES AND PROSPECTS INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE**

Chirchik, April 25, 2025

# **РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ: ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО- ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ**

Чирчик, 25 апреля 2025 г.



## “RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

### “RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya TASHKILIY QO'MITASI

**Rais:** G.I.Muxamedov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori

#### Tashkiliy qo'mita a'zolari:

**B.X. Eshchanov** – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

**S.B. Qorayev** – Yoshlar masalalari va ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor

**D.B. Axmadjanov** – O'quv ishlari bo'yicha prorektor

**O.A. Ortiqov** – Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor

**S.X. Gayupova** – Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i

**F.A. Ikramov** – Texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi boshlig'i

**R.A. Ikramov** – Gumanitar fanlar fakulteti decani

**G.G'. G'affarova** – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi mudiri

#### Tashkiliy qo'mitaning ishchi guruhi:

**N.A. Nazarov** – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi professori

**M.X. Borotov** – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi professori

**Sh.X. Tog'ayev** – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi dotsenti

**B.M.Qandov** – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi dotsenti

**G.S. Raxmonva** – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi dotsent v.b.,

**F.A Ibroximov** – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi

**A.A. Yo'ldoshev** – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi o'qituvchisi

**O.T. Berkinov** – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi o'qituvchisi

**D.A. Norboyeva** – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi magistranti

## **MAKTABGACHA TA'LIMDA INTEGRAL O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH INNOVATSION TEXNOLOGIYA SIFATIDA**

**Ilesova Lazzat Asan qizi**

CHDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich  
magistranti

**ilesovalazzat102@gmail.com**

**Rasulova Saidabonu**

Maktabgacha ta'lim fakulteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar ta'lifiy faoliyatini integral loyihalash asosida olib borish usulining ahamiyati yoritilgan. Tarbiyalanuvchilarni mifikta'limiga sifatli tayyorlashda muhim tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, integral yondashuv, intelekt, texnologiya, ijodiy qobiliyat, shaxs.

**Аннотация.** В статье освещается значение метода ведения образовательной деятельности воспитанников в дошкольных образовательных организациях на основе комплексного проектирования. Даны важные рекомендации по качественной подготовке воспитанников к школьному обучению.

**Ключевые слова:** интеграция, интегральный подход, интеллект, технологии, творчество способности, личность.

**Abstract.** The article highlights the importance of the method of conducting educational activities of schoolchildren in preschool educational organizations on the basis of integrated design. Important recommendations are given in the qualitative preparation of educators for school education

**Keywords:** integration, integrated approach, intellekt, technology, creative ability, personality.

Ma'lumki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida 2017 – 2021 yillarda mamlakatimiz taraqqiyotini yanada jadallashtirishga doir ustuvor vazifalar belgilab berildi. Harakatlar strategiyasidagi beshta ustuvor yo'nalishdan to'rtinchisi ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan. Aholi farovonligini ta'minlash, bandlik, salomatlikni muhofaza qilish, uy-joy masalalari qatoridan ta'lim-tarbiya tizimini taraqqiy etdirish masalasi ham o'rinn olgan. Shundan 2016 yil 29 dekabrdagi "2017–2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar bu boradagi ishlarning asosini tashkil qiladi.

## “RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Eng muhim, Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori bilan alohida vazirlik Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi.[1]

Milliy ta’lim taraqqiyotining zamonaviy bosqichi maktabgacha ta’lim sohasi xilmal-xil innovatsion faoliyati bilan ajralib turadi. Ta’limning yangi, shaxsga yo’naltirilgan turini shakllantirish murakkab jarayon hisoblanadi. Integratsiyalashgan ta’lim g’oyasi maktabgacha ta’limda o’z o’rnini egallamoqda. Integratsiyalashgan ta’lim zamonaviy metodologiyaning yangiliklaridan biridir. Bu tushuncha rus pedagogikasiga 80yillarda kirib keldi va predmetlararo aloqalarning eng yuqori shaklini bildira boshladi. Ushbu texnologiya maktabgacha ta’lim sohasi o’quv dasturlarini sekinlik bilan egallab boriyabdi va mavzularni moslashtirish biroz murkkabdek seziladi. Integratsiya pedagogning o’zini o’zi anglashi, o’zini namoyon qilishi, ijodkorligi uchun imkoniyat yaratadi, tarbiyalanuvchilarning qobiliyatlarini ochishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’limni integratsiyalashning mohiyati bu - bolaga barcha elementlari bir-biriga bog‘liq yaxlit olamni o‘z tasavvurida yaratib borishiga yordam beruvchi dastlabki bilimlarni o‘rgatishdan iborat. Bu uslub bolani ortiqcha zo‘riqishdan asrash, uning vaqt va kuchini tejagan holda o‘quv-bilish jarayonining samaradorlik darajasini orttirish imkoni beradi. Chunki bolalar bir vaqtning o‘zida bir nechta faoliyatga jalb qilinadi va mashg‘ulot uchun qo‘yilgan maqsadga to‘la erishish imkoniyati ta’minlanadi. Bugungi kunga kelib jahondagi mamlakatlarning 70 foizi ta’lim tizimida integrativ xarakterdagi o‘quv dasturlaridan foydalanib kelmoqda. Bizda bu borada dastlabki qadamlar ayniqsa, maktabgacha ta’lim sohasida yaxshi yo‘lga qo‘yilmoqda. Bola o‘ziga notanish dunyo hodisalari haqida eshitsa xayol suradi, ko‘rgach esa unda tasavvur hosil bo‘ladi, o‘z tajribasida sinab ko‘rsa musta’qil bilim egasiga aylanadi.[2]

Integrallasshtirilgan darsning maqsadi – bu asrning bolalari uchun ijodiy, badiiy, o‘yinchoq, mavjud bo‘lgan faoliyat turlari bilan konsepsiya, obyekt yoki hodisani keng qamrovli, ongli ravishda o‘rganishdir.

Maktabgacha ta’lim jarayonining quyidagi fa’oliyat shakllarida integral loyihalashga asoslangan ta’limni amalga oshirish mumkin:

- markazlardagi faoliyat
- frontal mashg‘ulotlar
- ta’limiy o‘yinlar
- sayr


Ushbu faoliylarda bolalarda motivatsiyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu o‘rinda, integral mashg‘ulotlar va integratsiyaning o‘zaro farqi nimadan iborat degan savol tug‘iladi. Integratsiyani bilimlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi, bir-birini to‘ldiruvchi va bir-birini tushuntiruvchi bilimlar yig‘indisi, deb oladigan bo‘lsak, uning tub mohiyatini

## “RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

aniqlash osonroq kechadi. Integratsiya ta'lif maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berish emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishiga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak.[3]

Integratsiya - predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi.

Ta'limi faoliyatni integrallashning afzalliklarini quyidagi rasmda aniqroq tushunish mumkin. (1-rasm)



Integratsiyalashgan mashg'ulotlar bolalarda yuqori faollikni tarbiyalaydi. Ularni tezkorlikka, ziyraklikka, nutqiy burrolikka, aqlliylikka, savodxonlikka va hayotiy fa'oliyatlarini to'g'ri rejalashtirishga o'rgatadi. Muhimi bolalarda o'z fa'oliyatiga nisbatan qiziqish va mehrni uyg'otib, unda ma'naviy-ijobiy intilishlarni yuzaga keltiradi. Sog'lom kelajak sohiblaridan ana shunday komillik kasb etgan qiyofa talab qilinadi.

### XULOSA

Zamon taraqqiy etgan sayin yangi axborot-texnologiyalari takomillashib boraveradi. Rivojlangan davrda ta’lim berish yo’llari ham o‘zgarib, yangi metodlarni topish majburiyati tug’iladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dunyoqarashni shakllantirish murakkabligi uchun hamisha ushbu soha xodimlaridan doimiy o’z ustida ishslash kerakligini talab qiladi. Integral loyihalash asosidagi ta’limiy faoliyat yo‘nalishi esa bolalarni bilish salohiyati va ijodiy sifatlarni yuksaltirishda muhim o‘rin tutishiga ishonamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi farmonida 2017 – 2021

2. J.Hasanboyev, X.To‘raqulov, I.Alqarov, N.Usmonov “Pedagogika” Toshkent. 2011. 41- 43-betlar

3. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova “Boshlang‘ich ta’limni integratsiyalashgan pedagogikasi” Toshkent – “ILM ZIYO” 2009-yil 5-6 betlar

4. <https://uz.everaoh.com>. “Bolalar bog’chasida integral darslar”

5. F.A.Boltayeva. The Essence of Integrating Innovative Technologies in Preschool Education. Pindus Journal Of Culture, Literature and ELT. 110 b

<https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/256>

**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

108.	<i>Oripova Marjona Salimovna</i> ADABIYOT DARSLARIDA LUG'AT USTIDA ISHLASHNING AHAMIYATI	452
109.	<i>Ilesova Lazzat Asan qizi, Yunusova Mohichehra</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA O'QUV-TARBIYVIY FAOLIYATNI INTEGRATSIYASINING O'ZIGA XOSLIGI	454
110.	<i>Abdulazizova Gulsanam Baxtiyor qizi</i> ABDULLA AVLONIY LIRIKASIDA ILM-MA'RIFAT MASALASI	457
111.	<i>Rasulova Shahrizoda Behzod qizi</i> RAQAMLASHTIRILGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR	460
112.	<i>Xolmurodova Marjona Dadaxon qizi</i> RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI	464
113.	<i>Abdumannanova Dilshoda Abdurauf qizi</i> TERRORIZM VA EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHDA XALQARO HUQUQIY MEXANIZMLAR	467
114.	<i>Ilesova Lazzat Asan qizi, Rasulova Saidabonu</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA INTEGRAL O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH INNOVATSION TEKNOLOGIYA SIFATIDA	471
115.	<i>Tursunov Jasurbek</i> BUYUK IPAK YO`LINING MARKAZIY OSIYODAN O`TGAN KARVON YO`LLARIDAGI SAVDO MARKAZLARI	475
116.	<i>Toshmatova Hulkar Shokir qizi</i> THOMAS HARDY'S STORIES AND THEIR PLACE IN VICTORIAN LITERATURE	479
117.	<i>Maxmanova Sevinch Farxod qizi</i> TARIXIY VA TARIXIY QADRIYATLAR TARG'IBOTI: RAQAMLASHTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI	482
118.	<i>Sultonova Madina Sultanovna</i> UCHINCHI RENESSANS VA INSON KAPITALI: O'ZARO ALOQADORLIK DIALEKTIKASI	486
119.	<i>Abduvaliyeva Nilufar Abdurasul qizi</i> HUQUQIY TA'LIMDA IQTIDORLI TALABALAR ISHTIROKINI FAOLLASHTIRISH: MILLIY TAJRIBA VA XALQARO METODIK YONDASHUVLAR	489
120.	<i>3.A. Турлибаева, X.A. Муминов</i> РАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ПРИЗНАКОВ ТРАДИЦИОННЫХ И СОВРЕМЕННЫХ СОРТОВ ЛЬНА (LINUM USITATISSIMUM L.)	492
121.	<i>Sobirova Zebo</i> DAVYDOV-CHABAN MODEL WITH DAVIDSON POTENTIAL	498
122.	<i>Begimqulova Mehriniso Odil qizi</i> MAMLAKATIMIZ OILA QONUNCHILIGIDAGI AYRIM ISLOHOTLAR	502